

Mundarija

Kirish	
1-bob. Internet tarmog`i uchun Web-saytlarni yaratish, ularga qo`yiladigan asosiy talablar va ularning tahlili	
1.1. Interfaol muloqatli internet axborot ashlari	
1.2. Web saxifa yaratish uchun qo`yiladigan talablar	
1.3. Maummoning qo`yilishi va uning amaliy ahamiyati	
2-bob. Kasb-hunar kollejini saytini yaratish bo`yicha boshlang`ich ma`lumotlarni shakllantirish va umumiy strukturani ishlab chiqish	
2.1. Axborot texnologiyalari asosida elektron Web saxifalarni yaratish bosqichlari xakida	
2.2. Dinamik saytlarni yaratishda WordPress dasturi va uning imkoniyatlarining sharhi	10
2.3. “Web sayt yaratish” mavzusini o`qitishni amaliy dars ssenariysini ishlab chiqish	
3-bob. Uchqo`rg`on Pedagogika kollejining dinamik Web saytini yaratish ...	
3.1. Uchqo`rg`on Pedagogika kolleji sayti uchun asosiy ma`lumotlarni shakllantirish	
3.2. WEB saxifani yaratish texnologiyasi	
3.3. YAratilgan saytdan foydalanish yo`riqnomasi	
4-bob. Hayot faoliyati xavfsizligi	
4.1. O`rgatuvchi elektron qo`llanmalarni yaratishda texnika xavfsizligi qoidalari	
4.2. Kompyuterlar bilan ishlaganda texnika xavfsizligi va elektr tokini inson organizmiga ta`siri	
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	
Ilova	

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Iqtisodiyatning turli tarmoqlari, boshqaruv, biznes, fan va ta'lim sohalariga axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda aholining turli qatlamlariga zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan keng foydalanishlari uchun qulay shart-sharoit yaratib berishda ЎzR Prezidentining ЎzR Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida" 2002 yil 30 maydagi PF-3080-son Farmonining qabul qilinishi asosiy qadam bo'ldi.

Prezidentimiz I.A.Karimov Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istikbolning asosiy tamoyillarini bayon kilar ekan madaniy-ma'rifiy soxadagi ishlarga mustakil respublikamizda ma'naviyatini rivojlantirish masalalariga xam aloxida tuxtalib, kuyidagilarni ta'kidladi: "Endigi asosiy vazifa kishilarimizni mustakil fikrlashga urganishi, uziga ishonchining ortib borishidir. Chunki tafakkur ozod bulmasa, ong va shukur tarzidan qullikdan qutulmasa, inson tula ozod bulmaydi".

SHu o'rinda prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimovning 2012 yil 21 mart, PQ-1730-sonli "Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari keltirib o'tilgan quyidagi "...axborot resurslari, texnologiyalari va tizimlarini, shu jumladan axborot xavfsizligini ta'minlash tizimlarini rivojlantirish holatini hisobga olgan holda axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish..." fikrlari axborot kommunikasiya texnologiyalari bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar davlatimiz miqyosida e'tiborda ekanligidan dalolat beradi.

Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jixatdan yetuk odamlar xal qiladi. Aqliy zakovat va ruxiy ma'naviy salohiyat-ma'rifatli insonning ikki qanotidir". Ana shu vazifa mutaxassislar yetishtiradigan oliy ukuv yurtlari zimmasiga ta'lim-tarbiya ishlarini xozirgi davr talablariga muvofik yanada takomillashtirish buyicha goyat muxim majburiyatlarni yuklaydi.

Oladigan bilimlarimizning asosiy mazmuni informatika vositalarining axamiyati tugrisida fikr yuritish emas, balki jamiyatning axborotga bulgan extiyojini kondirishdagi usul va vositalar tugrisida tushunchaga ega bulish hisoblanadi. Mazkur extiyoj doim mavjud bulaveradi va biror-bir axborotli muxit doirasida kondiriladi.

Oxirgi davrda axborotli muxitda katta uzgarishlar bulib bormokda. Ana shu uzgarishlar kogojsiz texnologiya zaruratini keltirib chikaradi. Bu esa uz navbatida, EXMning yanada keng rivojlanishiga sabab buldi.

Bugungi kunda institutimiz viloyatimizdagi barcha o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatmoqda. Institutga biriktirilgan akademik lisey va kasb-xunar kollejlari o'rtasida 2014-2019 yillarga mo'ljallangan hamkorlik shartnomalari tuzilgan. Ushbu shartnomalar asosida akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari pedagog kadrlarini zamonaviy axborot-kommunikasiya vositalarini qo'llash asosida ilg'or pedagogik texnologiyalarni egallashlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish, ularda interfaol ta'lim uslublarini o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha to'plagan tajribalarini ommalashtirishni ta'minlash maqsadida bir qator professor-o'qituvchilarimiz viloyatimizning turli tumanlari o'zlarining bilim va tajribalarini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari pedagog kadrlari uchun ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikasion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ishlarni bajarib kelmoqda.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning taqdirida yuqori malakali mutaxassislarning roli benihoya kattadir. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: «Ertangi kun yangicha fikrlay oladigan, zamonaviy bilimga ega bo'lgan yuksak malakali mutaxassislarni talab etadi». SHu sababli xalqimizning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalar asosida yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi va jadal sur'atlar bilan xayotga tatbiq etilmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida yangi bosqich bo'lgan kasb-xunar ta'limini zarur me'yoriy xujjatlar, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash, shuningdek elektron ma'lumotlar bazasini boyitish, internet tarmog'i uchun kasb – hunar kollejlarning saytlarini yaratish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi va amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori bilan «O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limining davlat ta'lim standarti» tasdiqlandi. Ularda ko'rsatib o'tilganidek, o'rta-maxsus kasb-xunar ta'limi muassasalarining bitiruvchilariga qo'yiladigan fundamental fanlar va aniq kasb sohasi doirasida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish, kompyuter va telekommunikasiya vositalaridan foydalana olish, o'quv fanlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida taxsil olish uchun zarur bo'lgan bilimlar majmuasiga ega bo'lish vazifasi qo'yilgan.

Ayniqsa, kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarga ta'lim berishda elektron kutubxonalarining tashkil etilishi va amalda foydalanilishi, har bir kasb-hunar kollejining ichki intranet saytining yaratilishi va undan to'gridan to'g'ri o'quv jarayoni va mustaqil ta'limda foydalanilishi bugungi kundagi mustaqil ta'lim tizimining katta yutuqlaridan deb hisoblashimizga asos bo'la oladi.

Biz ko'rib o'tmoqchi va hal qilmoqchi bo'lgan masalaning asosiy maqsadi ham Uchqo'rg'on Pedagogika kollejining dinamik Web saytini yaratish asnosida oliy ta'lim muassasalarining ichki internet sayti uchun yangi bir axborot manbaini yaratish va undan kasb-hunar kolleji, qolaversa, mustaqil o'rganishni xoxlovchi o'quvchilar uchun o'rgatuvchi dars ishlanmalari yaratishdan iborat.

Fan sohasini formal tasnifi. Y'quv fanining dolzarbligi va zarurligi shundan iboratki, o'quvchilar fanni o'zlashtirish davomida professional darajadagi bilimlarni o'zlashtirish, AdobePremierePro, PinnacleStudio, MovieMaker, Web Builder, Joomla, Dropal, DataLife Engine, WordPress kabi multimediyali va turli xil sahifa va saytlarni yaratish dasturiy ta'minotlar va multimedia qurilmalari bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Multimedia tizimlari yo'nalishi mutaxassisliklari uchun bunday dasturlar bilan ishlash juda muhim hisoblanadi. Bunday dasturiy vositalarni yaxshi bilgan mutaxassis o'z g'oyalarini ilgari surish, o'z loyihalarini ishlab chiqish, turli animasion taqdimotlarni ishlab chiqish va tushuntirish uchun juda yaxshi imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Fanni o'rganish jarayonida o'quvchilar quyidagi bilimlarni egallashlari lozim:

- multimedia tizimi tarkibi;
- multimedia tizimi texnik ta'minoti;
- videoqurilma turlari;
- raqamli videoaxborotni qayta ishlash usullari;
- video montaj qoidalari.

Fanni o'rganish jarayonida o'quvchilar quyidagilarni bajara olishlari lozim:

- shaxsiy kompyuterga multimedia qurilmalarini o'rnatish va sozlash;
- tovushli axborotni qayta ishlash;
- ovoz yo'lakchalarini montaj qilish;
- raqamli videoaxborotni qayta ishlash;
- video yo'lakchalarini montaj qila olish;
- audio va video effektlarni yaratish va qo'llash;
- optik tashuvchilarga multimediali axborotlarni;
- optik tashuvchilarni virtual qiyofasini yaratish.

Ushbu sohadagi muammolar va mazkur ishning zarurati. Bitiruv malakaviy ishi mavzusida keltirilgan muammo zahirida kasb-hunar kolleji talabalarining multimedia tizimlari kichik mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha davlat ta'lim standarti asosida o'qitiladigan mutaxassislik fani mustaqil ta'limdagi saytlar yaratish dasturlari va imkoniyatlarini o'rganishda mustaqil ta'lim sifatida kasb-hunar kollejining internet tarmog'i uchun saytini yaratish va bu dastur imkoniyatlarini yanada kengroq ochib berish masalasi yotadi. Ushbu muammoni hal qilish orqali kasb-hunar kolleji faoliyatiga oid ma'lumotlarni internet tarmog'ida yoritib borish, halqaro aloqalarni rivojlantirish, o'zaro ma'lumotlar almashinuvida yangi imkoniyatlarni ochib berish

nazarda tutiladi. Bugungi kunda bunday internet tarmog'i uchun Uchqo'rg'on Pedagogika kollejining Web saytini ishlab chiqilmagan. SHu sababli bu mavzuni dolzarb hamda kasb-hunar kolleji talabalari uchun muhim deb hisoblash mumkin.

Loyihaning maqsadi va vazifalari (samaradorligini oshirish, sifatini yaxshilash).

Bitiruv malakaviy ishi mavzusida keltirilgan Uchqo'rg'on Pedagogika kollejining dinamik Web saytini yaratishdan asosiy maqsad sifatida talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini, kasb-hunar kollejida amalga oshirilayotgan turli xil tadbirlar, kasb-hunar kollejining faoliyatiga oid turli ma'lumotlarni internet tarmog'ida yoritib borish bilan bog'liq bo'lgan sayt yaratishga erishishdan iborat.

Masalaning noformal tavsifi (mazkur ishning maqsadi). Keltirib o'tilgan bitiruv malakaviy ishida kasb-hunar kollejarining Informatika va axborot texnologiyalari, Multimedia tizimlari va texnologiyalari bo'yicha kichik mutaxassislar uchun mutaxassislik fanlari blokidagi Web dasturlash fanining mustaqil ta'lim soatida internet tarmog'i uchun Web-saytlarni yaratuvchi dasturlarida ishlash bo'yicha talabalar bilimini yanada oshirish, internet uchun sayt yaratish bo'yicha dars ishlanma yaratish hamda eng asosiysi, Uchqo'rg'on Pedagogika kollejining dinamik Web saytini yaratish va ushbu yaratilgan dinamik saytni internet tarmog'iga o'rnatish hamda yetarli samaraga erishish ishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi haqida ma'lumot. Uchqo'rg'on Pedagogika kollejining dinamik Web saytini yaratish mavzusi bo'yicha tayyorlangan bitiruv malakaviy ishi asosan quyidagi qismlardan tashkil topgan. Bular, kirish, asosiy qism, hayot faoliyati xavfsizligi, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar bo'limlaridan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida kasb ta'limi yo'nalishida yangi axborot texnologiyalari, bitiruv malakaviy ishi bo'yicha mavzuning dolzarbligi, bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari hamda bitiruv malakaviy ishining tuzilishi keltirib o'tiladi. Asosiy qism, uchta bobdan tashkil topgan bo'lib, ular Internet tarmog'i uchun Web-saytlarni yaratish, ularga qo'yiladigan asosiy talablar va ularning tahlili, Kasb-hunar kollejni saytini yaratish bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarni shakllantirish va umumiy strukturani ishlab chiqish hamda Uchqo'rg'on Pedagogika kollejining dinamik Web saytini yaratish boblaridan iborat.

Hayot faoliyati xavfsizligi bo'limida o'quv xonalarida atrof-muhit muhofazasi masalalari va mashg'ulotlarini o'tish jarayonida hayot faoliyati xavfsizligi masalalari qarab o'tiladi. SHuningdek, umumiy tahlillari keltirib o'tiladi.

Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar bo'limlarida esa, bitiruv malakaviy ishini bajarish bo'yicha umumiy xulosalar, takliflar va ishni bajarish jarayonida foydalanilgan adabiyotlar hamda tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar keltirib o'tiladi.

Malakaviy bitiruv ishining izoh bo'limida yaratilgan Uchqo'rg'on Pedagogika kollejining dinamik Web sayti dasturining matni keltirib o'tiladi.

1-bob. Internet tarmog'i uchun Web-saytlarni yaratish, ularga qo'yiladigan asosiy talablar va ularning tahlili

1.1. *Interfaol muloqatli internet axborot ashlari*

Axborot (resurslari) ashyolari – insoniyat kirgan axborot jamiyatining asosiy tushunchalaridan iborat. Axborot ashyosi deganda kishilarning u yoki bu axborotlarga bo'lgan ixtiyojlarini qondirish uchun to'plangan barcha axborotlar tushiniladi. Ushbu axborot ashyosi ichida turli sohalarga tegishli, jumladan, ta'lim tizimiga oid axborot manbaalarining oxirgi turlaridan foydalanishni bilish har bir pedagogning vazifasidir.

Internet tarmog'ining global kompyuter axborot ashyolariga quyidigilar kiradi:

1. - elektron pochta;
2. - teleanjuman;
3. - uzoqlashtirilgan ochiq o'quv kataloglari virtual (tarmoqli elektron) kutubxonalar, on-laynli jurnallar;
4. - ma'lumotlar ombori va banklari, bilimlar ombori va hokazolar.

Bularning ko'pchiligi axborot oluvchidan amaliy jihatdan xozir javob talab etiladigan interfaol muloqatli tartibda foydalanilish mumkin.

1. *Elektron pochta (E mail)*. Internetning eng ko'p tarqalgan va yetarlicha samarali ashyolaridan hisoblanib, undan asosan Internet tarmog'iga kirgan barcha kishilar foydalaniladilar. Elektron pochta «ajratib qo'yilgan» (off-line) axborot ashyolari sirasiga kiradi. Bunday ashyoning alohida xususiyati foydalanuvchi tomonidan axborotni so'rash va olish vaqt bo'yicha yetarlicha qat'iy ajratilayotganligidir. So'ralayotgan va olinayotgan axborotni naqadar dolzarbligi bilan belgilanadi. Jo'natish uchun mo'ljallangan elektron xat, ya'ni matnli fayl foydalanuvchining manzili va xat mazmunidan tashkil topadi. Xatning matni turli-tuman mazmunlarga ega bo'lishi mumkin.

Internet tarmog'idagi elektron pochta universaldir, ya'ni mahalliy tarmoqlarda turli tamoyil va bayonomalarda tuzilgan mintaqaviy tashkilotlar bilan Internet tarmog'i orqali elektron xatlarni bemalol almashishlari mumkin.

2 *Teleanjumanlar*. Bularni odatda *tarmoqli yangiliklar* yoki *elektron doska* (taxta) lar ham deb atashadi. U ommalashganli bo'yicha Internet axborot ashyolari ichida ikkinchi hisoblanib, unda «bittadan-barchaga» tamoyilida amalga oshiriladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, teleanjumanlar elektron pochta kabi ishlaydi, lekin undagi xabar(yangilik)larga ko'pchilik kirishi mumkin. Yangiliklar odatda shajaraviy ravishda tashkil etilgan mavzulik guruhlar bo'yicha ajratiladi. Global shajaralar va qandaydir tashkilotlar uchun mo'ljallangan mahalliy shajaralar bo'lishi mumkin. Yiqituvchi yoki qandaydir guruh talabasi u yoki bu predmetni o'rganish bo'yicha o'quv guruhining boshqa barcha talabalari bilan muloqat qilayotgan paytda o'tkazilayotgan teleanjuman xuddi shu shajarani turiga kiradi.

3. *Uzoqlashtirgan ochiq o'quv kataloglari, virtual (elektron tarmoqli) kutubxoralar, on-layn jurnallar*. Masofali ta'lim tizimini rivojlanishi va masofali o'qitish texnologiyasi bo'yicha shug'ullanayotgan talabalarining sonini oshishi, ularga turli o'quv – uslubiy qo'llanma, on-layn jurnallaridagi tavsiya etilgan maqolalar va no'eb elektron darsliklar ko'rinishidagi axborot ashyolariga bemalol kira olishlarini ta'minlaydigan oliy ta'lim muassasalarining kutubxonasini tashkil etish masalasi dolzabdir.

Ko'shimcha adabiyot tanlash uchun talabalarga shuningdek, Internetning global tarmog'idagi ochiq o'quv kataloglariga ham kirishga imkon yaratish kerak. Masalan, Internetning global tarmog'ida Jahon virtual kutubxonasi (<http://virtuallibrary.org/>) mavjud. U Stenford universiteti va boshqa Amerikaning ilmiy va o'quv muassasalari tomonidan qo'llab-quvvatlanib turiladi. Virtual kutubxonaning ta'limiga oid qator bo'limlari mavjud. Xudi shunday, Jahon (www.vbib.org) virtual kutubxonasi mavjud. Bunda iqtisodiy ma'lumotlar to'plangan. Jahon akademik fazosiga integrasiya qilish, ilmiy va ta'lim jarayonining axborot ta'lim vositalarini samadorligini oshirish maqsadida 1998 yildan e'tiboran Rossiyada Moskva ijtimoiy va iqtisodiy oliy kolleji, Rossiya ijtimoiy kolleji (Moskva sh.) va yevropa universiteti (Sankt-Peterburg sh.) ishtiroklarida kutubxona – axborot konsorsiumini yaratish loyihasi ishlab chiqilgan.

Bunda Internetning global tarmog'ida birlashgan ochiq o'quv katalogni yaratish va axborot kutubxonasining materiallarini korporativ kataloglashtirish modelini ishlab chiqish masalalari mo'ljallangan. Ravshanki, ushbu loyihani ishlashi asosida uchta zarur tamoyil: abonent uchun kutubxona; kutubxona jamg'armasiga ochiq kirish va eng yangi axborot texnologiyalari kiritilgan. Ushbu kutubxonaning axborot ma'lumotnoma faoliyatida mahalliy ma'lumotlar omboridan tashqari Internet tarmog'i orqali kirishi mumkin bo'lgan uzoqlashtirilgan ma'lumotlar ombori ham foydalaniladi. Kutubxona ma'lumotnomali va bibliografik axborotlarni izlash bo'yicha ko'pgina yirik axborot ta'minlovchilar, jumladan, AKSH kongressi kutubxonasi (USA Library of course) ning tekin xizmatlaridan foydalaniladi.

4. Tarmoqning elektron texnologiyalarini foydalaniladigan masofali o'qitishda elektron kutubxona ochiq masofali ta'lim tizimining ta'lim muhiti infratizimi asosiy elementining zarur qismidan iborat bo'ladi. Boshqaga so'z bilan aytganda, elektron kutubxona - ochiq masofali ta'lim tizimini tashkil etuvchi modelidir.

Bunda ta'limning masofali o'qitish tizimida elektron kutubxonaning alohida xususiyati shundan iboratki, uning jamg'armasi elektron ko'rinishda ham, magnit tashuvchilarda ham, CD ROM larda va nashr ko'rinishlarda ham bo'lishi mumkin.

1.2. Web sahifa yaratish uchun qo'yiladigan talablar

Aytaylik, siz WWW (*World Wide Web*, Dunyo tarmog'i)da o'z bo'g'iningizni yaratmoqchi va joylashtirmoqchi bo'ldingiz. Uning qiziqarli, foydali va muximi ko'p kiriladigan bo'lishi uchun nimalar qilish kerak. Aniq javob berish kerak bo'lgan birinchi savol: Web-bo'g'in nima uchun yaratilayapti? Bu savolga ko'p narsa bog'liq: bezash usuli, yaratish va keyingi faoliyati uchun sarflanadigan harajatlar, Web ga o'rnatish uchun ma'lumotlarni tasvirlash formati, Web-serverning va Internet aloqasi kanalining dasturiy ta'minotiga bo'lgan talablar va instrumentlar. Bu yerda bir necha variantlar bo'lishi mumkin.

Agar biz qandaydir maxsulotni realizatsiya qilayotgan kompaniya uchun Web-bo'g'in yaratayotgan bo'lsak, u holda asosiy maqsad firma to'g'risida ma'lumot tarqatish va maxsulot reklamasi va yana Web-magazin tashkil qilish bo'ladi. Bunda quyidagi vazifalar yechiladi:

- kompaniya imijini o'zgartirish va obro'yini ko'tarish;
- maxsulot markasini oldinga surish;
- maxsulot tug'risidagi ma'lumotlarning yetarliligi va xaridorlar uchun narxlar;
- dilerlar tarmog'ini qo'llab-quvvatlash, maxsulot tug'risidagi ma'lumotlarning yetarliligi va dilerlar uchun narxlar;
- maxsulotni Internetda to'g'ridan-to'g'ri sotish, Web-magazin tashkil qilish;
- ofisdan tashqaridagi xodimlar uchun ichki ma'lumotlarning yetarliligi.

Boshqacha variant – bu internetda tijorat bilan shug'ullanmaydigan, balki ma'lumot tarqatadigan ilmiy yoki umumta'lim tashkilotlari uchun Web-bo'g'in yaratish. Bu holatda masala qidiruvni tashkil qilish va unga kirish uchun katta ma'lumotlar maSSIvlarini yig'ish, qayta ishlash va Web-bo'g'inga joylashtirish to'g'risida boradi.

Va so'nggi variant – siz o'zingizning sahifangizni Internetga joylashtirmoqchisiz.

Ko'yilgan savollarga to'g'ri javob berish uchun Web-bo'g'in mo'ljallangan foydalanuvchilar kategoriyasini aniqlash lozim. Klientlarni jalb qiluvchi va ularni ushlab turuvchi ma'lumotlar qurilmasi psixologiya asosida qurilishi kerak. Keyinchalik Web-bo'g'in bilan bog'liq bo'lgan har qanday harakatlarlarning maqbulligi sahifaga kiruvchilarni ularga nisbatan aks harakatlariga va bu harakatlar ko'zlangan maqsadga yetishga qanchalik xizmat qilishiga ko'ra baxolanmog'i lozim.

Maqsadlar belgilab va foydalanuvchilar kategoriyalari aniqlab olingandan keyin tayyorlangan ma'lumotlarni Web-dokumentlar bo'yicha taqsimlab olish, ular orasidagi bog'liqliklarni o'ylab ko'rish va qo'shimcha navigatsion imkoniyatlarni, masalan, Web-bo'g'im bo'yicha qidiruv sistemasini ko'rib chiqish kerak.

Firma Web-bo'g'ining tipik tuzilishi odatda quyidagicha tasvirlanadi:

Kompaniya to'g'risida ma'lumot. Firmaning maqsadlari va ish yuritishi usullari, uning tarixi va h. To'g'risida bayon qilish kerak. Klientlar aynan siz bilan, boshqa kompaniyalar bilan emas, hamkorlik qilib qanday foyda olishlarini ko'rsating.

Maxsulot va xizmatlar yuzasidan ma'lumot. Web-sahifaga o'zingizning maxsulotingizning rasmlarini yoki fotorasmlarini joylashtiring. Uning xususiyatlari va ustunliklarini bayon qiling va undan foydalanishga misollar keltiring. Agar maxsulotning qog'ozdagi katalogi mavjud bo'lsa, u holda uning mazmunini va strukturasini Web-bo'g'inga joylashtirish mumkin. Bu katalogning elektron variantini yaratish va yangilab turishini yengillashtiradi. Agar maxsulotga yoki xizmatlarga Internet orqali buyurtmalar qabul qilish rejalashtirilayotgan bo'lsa, u holda elektron pochta orqali qabul qilish uchun buyurtma blankasini joylashtirish kerak.

Informatsion qo'llab-quvvatlash. Bu bo'limda qo'shimcha texnik ma'lumotlar, ko'p beriladigan savollar, noto'kisliklarni bartaraf qilish uchun maslaxatlar va hokazolar e'lon qilinadi.

YAngiliklar. Xaridorlarni firma tomonidan chiqarilayotgan yangi maxsulotlar va ko'rastilayotgan yangi xizmatlar to'g'risida xabardor qilib turing, press-rilizlarni chop qiling va hokazo.

Teskari aloqa. Siz bilan qanday aloqaga kirishish mumkinligini va qaerda joylashganingiz to'g'risida xabar bering. Izoxlar formasi, mexmonlar kitobi, xaridor o'z fikrlarini jo'natishi uchun elektron pochta adreslari va h. ni joylashtiring.

Web-bo'g'inni to'ldirishda doimo ikki tamoyilni yodda tutish kerak: o'ziga xoslik va e'lon qilinayotgan materiallarning ishonchliligi.

Y'ziga xoslik mazmunga qo'iladigan eng birinchi talabdir. WWW da shunga o'xshash ko'plab sahifalar bo'lishi mumkin. Sizning Web-bo'g'iningiz shunga o'xshash tematikadagi serverlardan farq qilishi kerak, xech bo'lmaganda diqqatni o'ziga jalb qilish uchun. Y'ziga xos materiallarni joylashtirilishi sahifangizga kiruvchilar sonini orttiradi. Y'ziga xos ma'lumotlar resursi yaratish uchun prinsipial jihatdan yangi narsani yaratish shart emas, mavjud resurslarni boshqacha tartibda joylashtirish mumkin, lekin bunda xaridorga kerakli materialni qidirishda ko'p vaqt sarflashga majbur qilmaslik kerak. Resurslarning o'ziga xosligini zamonaviy qidiruv sistemalari yordamida tekshirib ko'rish mumkin. Obro' jihatdan kelsak, u siz ma'lumotlarni qanchalik sinchiklab tanlashingiz, tekshiringiz va o'z vaqtida yangilab turishingizga bog'liq bo'ladi.

Web- bo`g`imni yaratishda shu narsani esda tutish kerakki, uni tashkil qiluvchi alohida dokumentlar bir xil bezash usuli va navigasion vositalar bilan birlashtirilishi kerak. YAgona bezash usuli – bu professional Web-bo`g`inni havaskor Web-bo`g`inlardan farqlovchi ko`rsatkichlardan biridir. Bir xil ko`rinishda qilinga dokumentlar tufayli foydalanuvchilar sizning Web-bo`g`imizni boshqalardan ajrata olishadi va eslab qolishadi. Bu dokumentlar xuddi ikki tomchi suvdek bir-biriga o`xshashi kerakligini bildirmaydi, lekin umumiy g`oya, yagona usul doimo bo`lishi kerak.

SHu narsa sahifalar bo`ylab navigasion vositalarga ham tegishli. Web-bo`g`inga kiruvchi uni xuddi siz kabi yaxshi biladi deb o`ylamaslik kerak. U hozir o`zining qacda turganligini va boshqa hohlagan joyga qanday o`tishi mumkinligini qiyinchiliksiz bila olishi kerak. Birinchi sahifaga, qidiruv dasturiga yoki Web-bo`g`in sxemasiga o`ta olish imkoniyati ko`rib qo`yilishi kerak.

Bundan tashqari usulning bir xilligi bezash va navigasiyaning faqatgina oddiy elementlariga ega shablon-sahifalardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Ularning yordamida yangi sahifalarni tez va unumli tarzda yaratish va uni yaratishda ishni bir necha kishiga taqsimlash mumkin. Tayyor sahifani olishda shablondan foydalanishda unga faqatgina kerakli ma`lumotlarni kiritiladi. Ketma-ketlilik, mantiqiylik, doimiylik – yaxshi Web-bo`g`in uchun kerak bo`ladigan xususiyatlar. NTML 4.0 da paydo bo`lgan usullarning kaskadli jadvallari sizning Web-bo`g`iningiz stilini hosil qilish va o`zgartirish bo`yicha qilinadiga ishlarni anchagina soddalashtiradi. Ularning bazi bir imkoniyatlari to`g`risida quyida hikoya qilinadi, alohida bo`lim esa ulaga bag`ishlanadi.

Maqsadlar aniqlanib, struktura berilgan va matnli va grafik ma`lumotlar yig`ilgandan keyin Web-bo`g`imning tashqi ko`rinishini ishlab chiqish kerak. U yana erishish kerak bo`lgan maqsadlarga ham bog`liq bo`ladi. Mumkin bo`lgan yechimlar cpektri juda keng: mavjud sahifalarni ko`rish va unga o`xshashlarini yaratishdan tortib professional dizayner va rassomlarga murojaat qilishgacha. SHu bilan bir vaqtda Web-bo`g`in tashkil topgan Web-dokumentlarni qurishning o`rnashib ulgurgan qoidalarini ham yodda tutish kerak.

Struktura. Bugungi kunda dokument strukturasi to`grisidagi qarashlar qat`iylashdi. Web-dokument o`zida quyidagi bo`limlarga ega bo`lishi kerak: sarlavha, kompaniya nomi, navigasion panel, hususiy mazmun, kontakt ma`lumotlari, yangilanish sanasi va vaqti, mualliflik xuquqi va dokument statusi.

Logotip. Web-sahifani yaratishda firmaning nomi doimo ekranda bo`lishi to`g`risida qayg`urish kerak. Buning uchun har bir Web-dokumentning boshida odatda chiroyli qilib bezatilgan firma logotipi joylashtiriladi. Bundan tashqari kompaniya nomi barcha dokumentlarga kiruvchi ma`lumotlarda ham bo`lishi kerak.

Navigasion panel. Web-dokumentdagi eng muhim bo`limlardan biri bu navigasion panel yoki boshqaruv panelidir. WWW undagi gipermatnli o`tishlar e`lon qilinayotgan metrialalar orasida bog`lanishlarni yuzaga keltirganligi hisobiga butub dunyoni egalladi. Lekin xuddi shu o`tishlar to`la xaos havfini ham yuzaga keltiradi, zanjir bo`ylab uch-to`rtta dokumentni o`gandan keyin, orqaga qaytolmay qolasiz. Sizning Web-bo`g`iningiz aniq va intuitive tushunarli navigasion yo`nalishlar bilan ta`minlashi kerak.

Ko`plab o`tkazilgan izlanishlar ko`rsatadiki, Web-serverlarga kiruvchilar juda sabrsizdir va serverdagi ma`lumotlar bo`yicha ikki darajadadan ortiq ichkari kirishni istashmaydi. SHuning uchun katta hajmdagi Web-bo`g`imlarini yaratayotganda har qanday ma`lumot bir-ikki o`tishlardan uzoq jiylashmagan oraliq, odatda birinchi-ikkinchi darajada joylashuvchi dokumentlarni ko`rib chiqish kerak.

Sizning Web-bo`g`iningizning navigasion paneli har bir dokumentda bo`lishi kerak. eng avval unda Web-bo`g`im strukturasi qo`shni dokumentlarni ko`rsatuvchi “Oldinga”-“Orqaga” (“Navbatdagi”-“Oldingi”) tipidagi yo`naltiruvchi o`tishlar bo`lishi kerak. YAna boshqaruv panelidan Web-bo`g`imning barcha yirik bo`limlari – birinchi darajali bo`limlariga o`tishlar bo`lishi kerak. Va nihoyat foydalanuvchi doimo Web-bo`g`imning asosiy sahifasiga qaytish imkoniyatiga ega bo`lishi kerak. O`tishlardan tashqari mahalliy qidiruv sistemasiga va indeksga bo`lgan yo`lni ko`rsatish kerak

Mazmun. eng oldin shuni ta`kidlash kerakki, Web-dokumentlar oddiy gazeta yoki jurnallarga qo`yiladigan talablarga to`la javob berislari kerak: Grammatik va orfografik xatolardan holi bo`lish, berilayotgan materiallarning aniqligi va ishonchliligi va boshqalar. Bundan tashqari Web-dokument qanoatlantirishi kerak bo`lgan ko`plab maxsus talablar paydo bo`ladi.

Ko`pincha dokumentning o`chamlari to`g`risida savol tug`iladi: qanday sondagi sahifalar yetarli bo`ladi? Javob birinchi qaraganda g`alati tuyulishi mumkin: bitta ekranli oyna yoki xech qanday chegara qo`ilmaydi. Ko`plab izlanishlar shuni ko`rsatadiki, foydalanuvchilar brauzerning yugurdakli polosasi bilan ishlashni yoqtitishmaydi. Ularga hammasidan ko`proq bitta ekranga sig`adigan sahifa yoqadi. Haqiqatdan ham siz xech qachon foydalanuvchiga bitta sahifaga joylashtirib yozilgandan ko`proq ma`lumot bera olmaysiz. Agar bitta sahifaga sig`dira olmasangiz, u holda yan bitta dokument yaratib.

Bir ekranli sahifa ma`lumotlarni tasvirlash uchun mos o`lchov bo`lib chiqdi. Agar dokumentning o`lchami bitta sahifadan o`tib kesa, ko`pchilik hollarda u har biri bitta sahifadan ortiq joy egallamaydigan bir nechta mantiqiy bo`laklarga bo`linishi mumkin. Agar ma`lumotni mantiqiy qismlarga bo`lishning iloji bo`lmasa, bayon qilish usulini, ba`zan esa materialni o`zini ham qayta ko`rib chiqish kerak bo`ladi. Hozirgi vaqtda Web-serverni bir ekranli dokumentlar asosida qurish kerak degan umumiy fikr hosil bo`lgan. Bu qoidadan ikki holdagina chekiniladi. U WWWda e`lon qilinayotgan maqolalarga qo`llanilmaydi va ikkinchi hol- bo`lsih mumkin bo`lmagan anketa formalari.

Grafika. Web-sahifani ishlab chiqishda grafik va matnli materiallarning optimal nisbatini diqqat bilan tanlash kerak. Bitta yahshi rasm ming qator metnning o`rnini olishi mumkin, lekin u tarmoqda ming marta yzoqroq yuklanadi ham. SHuning uchun grafikadan extiyot bo`lib foydalanish kerak. SHu narsadan kelib chiqish mumkinki,

sahifadagi grafika Web-ustasi xohlagandan ko'ra ozroq bo'lishi kerak. Foydalanuvchilarda sabr yetishmasligi mumkin va ular dokumentni to'la ochilmasidan turib yopib yuborishadi. Sismtema javobining kechikishi foydalanuvchining g'ashini keltiradi. Hozir Internetning kanallar infrastrukturasini ishlash qanchalik og'irligini hamma yaxshi tushunadi. SHuning uchun kechikish vaqti sutka vaqtiga qarab 15-60 sekundgacha o'zgarib turadi. endi tasavvur qiling, klientda faqat 19200 bit/s uchun modem bo'lsin. Bundan oshig'iga Rossiya telefon liniyalarida erishish qiyin. U holda bir minut ichida, yani klientning sabri tugaguncha, faqatgina 170 Kbayt ma'lumot uzatish mumkin. SHundan kelib chiqib, dokument o'lchami bundan katta bo'lmasligi lozim.

SHuni ta'kidlash kerakki, boshqaruv paneli, firma nomi va logotipi odatda grafik elementlar shaklida bajariladi. Maketini yasagandan keyin *HTML* va *WWW* ning samonaviy texnologiyalari tomonidan tavsiya qilinadigan boshqa vositalar yordamida amalga oshirishni boshlash mumkin.

Web-bo'g'imni yaratib bo'lib, uni Internetga joylashtirish kerak. Bu yerda ikkita variant bo'lishi mumkin: birinchisi – Web-server va Web-bo'g'im bilan birga ofisingizda turgan kompyuterdan foydalanish va ajratilgan yoki kommutirli liniya bo'yicha Internetga ulanish; ikkinchisi – Web-bo'g'imni joylashda maxsus tashkilotlar xizmatidan foydalanish.

Ikkinchi variantni ko'rib chiqamiz. Web-sahifaga kirishni ta'minlovchi providerni to'g'ri tanlash sizning klientlaringizga maksimal qulaylik bilan ma'lumotlarni olish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari Web-server tomonidan maxsus imkoniyatlar berilishi Web-bo'g'imni ishlab chiqishni engillashtiriladi.

Sizning Web-bo'g'imingizni o'z serveriga joylashtiradigan provayderni tanlashda nimaga e'tibor berish zarur?

Kanalning o'tkazish qobiliyati. Sizning xaridorlaringiz sahifani yuklanishini ko'p kutib qolmasliklari uchun provayder sekundiga 1-2 Mbit tartibidagi ishonchli yuqori tezlikdagi aloqaga ega bo'lishi kerak.

Server tomonidan SSI (Server Side Includes, server tomonidan qo'lima) *provayderini qo'llab-quvvatlash*. SSI dan foydalanish Web serverga foydalanuvchiga jo'natilayotgan HTML-dokumentga kichik hajmli dinamik ma'lumotlarni bevosita qo'shish imkoniyatini beradi. So'ralgan HTML-sahifa SSI elementlarini qidirib, "ko'rib chiqiladi". Bunday elementni topsa, server talab qilingan dinamik ma'lumotni qo'shadi. SSI yordamida bir faylni ikkinchisining ichiga joylashtirish, CGI-ssenariyalarni bajarishi va boshqa ma'lumotlarni uzatishi mumkin. SSI ning qanday funksiyalari provayder serveri tomonidan qo'llanishini aniqlash lozim.

Provayder serveri tomonidan CGI-ssenariyalarini qo'llab-quvvatlanishi. CGI (Common Gateway Interface, umumiy shlyuzli interfeys) — Web-serverga ixtiyoriy amaliy dasturlarni bajarishga imkon beruvchi spesifikasiya. Bunday dasturlarning (ssenariya yoki "skriptlar") ishlashi natijasida HTML-dokumentlar yaratiladi. CGI-ssenariyalar yordamida foydalanuvchidan ma'lumotlar qabul qilinishi, Web-sahifalarda muloqotni tashkil qilish, ma'lumotlar bazalariga so'rovlar qilish kabilarni amalga oshirish mumkin. CGI-ssenariyalarini istalgan keng tarqalgan dasturlash tillari: Perl, Basic, C, CQQ, Pascal va boshqalar yordamida yaratish mumkin.

Yz vaqtida qayta kodlashtirishning qo'llab-quvvatlanishi. Afsuski, turli xil platformalar (Windows, Mac, Unix va boshqalar)da Internetda ishlaganda rus tili uchun turli xil kodlashtirishlar qabul qilingan. Foydalanuvchiga sahifalarni ko'rish oson bo'lishi uchun provayder Web-serveri tushayapgan talabga binoan dokumentni avtomatik tarzda qayta kodlashtira olishi kerak. Aks holda yoki sizning Web-bo'g'imingiz ayrim- kiruvchilar uchun o'qib bo'lmaydiga bo'lib qoladi, yoki Web-bo'g'imning bir nechta nusxalarini – har bir kodlash usuli uchun bittadan-tayorlash kerak bo'ladi.

Sahifani yangilab turish usuli. Odatda sahifalar FTP (File Transfer Protocol, Fayllarni uzatish protokoli) protokoli bo'yicha yangilab turiladi. Ayrim FTP-klientlar provayder kompyuteridagi fayllar bilan xuddi o'zining kompyuteridagi fayllar singari ishlash imkoniyatini beradi, yani nusxa olish, o'chirish, qayta nomlash va hokazo.

Odatda Web-bo'g'inni joylashtirish xizmatini provayder o'zina to'lov evaziga yoki butunlay bepul amalga oshiradi.

Web-bo'g'in ostida elektron pochta adresi va boshqa xizmatlar bilan joy ajratadigan xizmatlar mavjud. qoidaga binoan bunday "bepul" joylashtirishning sharti bu reklama uchun sizning sahifangizdan joy olishdir. Undan tashqari sizning fayllaringizning o'lchamlariga chegaralar qo'yiladi.

1.3. Maummoning qo'yilishi va uning amaliy ahamiyati

Ma'lumki, bugungi kunga qadar axborotlashtirish va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish bo'yicha bo'yicha qo'plab qaror va nizomlar ishlab chiqildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004 y., 1-2-son, 10-modda) va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 20 sentyabrdagi PQ-2042-son «Mamlakatimizning dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 39-son, 508-modda) hamda Dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarining milliy reestri to'g'risidagi nizomlar ishlab chiqildi.

Bu esa, biz bo'lg'usi mutaxassilar oldiga o'ziga xos zamonaviy talablarni qo'yadi. Bitiruv malakaviy ishi mavzusida keltiriblangan muammani hal qilinishida ham asosiy urg'uni axborotlashtirish va tarmoqda axborot oqimini kuchaytirish, ya'ni o'zbek tilidagi manbalarni yanada ko'paytirish hamda shu

asnoda Uchqo`rg`on Pedagogika kollejining dinamik Web saytni yaratish mavzusi asosida quyidagi masalalarni hal qilish talab qilinadi:

- Internet tarmog`i uchun Web-saytlarni yaratish, ularga qo`yiladigan asosiy talablar va ularning tahlilini ishlab chiqish;
- Interfaol muloqatli internet axborot asholarini tahlil qilish;
- Web sahifa yaratish uchun qo`yiladigan talablarni shakllantirish;
- Kasb-hunar kollejini saytni yaratish bo`yicha boshlang`ich ma`lumotlarni shakllantirish va umumiy strukturani ishlab chiqish;
- Axborot texnologiyalari asosida elektron Web sahifalarni yaratish bosqichlari xakida manbalarni shakllantirish;
- “Web sayt yaratish” mavzusini o`qitishni amaliy dars ssenariysini ishlab chiqish;
- Uchqo`rg`on Pedagogika kollejining dinamik Web saytni yaratish;
- WEB sahifani yaratish texnologiyasini ishlab chiqish;
- O`rgatuvchi elektron qo`llanmalarni yaratishda texnika xavfsizligi qoidalarini ishlab chiqish;
- Hayot faoliyati xavfsizligi bo`yicha tahliliy fikrlarni keltirib o`tish;
- Bitiruv malakaviy ishi bo`yicha bajarilgan ishdan olingan natijalar bo`yicha xulosani keltirib o`tish talab qilinadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko`rinadiki, yangi axborot texnologiyalarini o`quv jarayoniga qo`llash bilim olishda katta imkoniyatlarni ochib beradi. Xususan, kasb-xunar kollejlarda va oliy ta`lim muassasalarida o`qitiladigan dasturlashga oid fanlar bo`yicha mustaqil ta`lim olish uchun, qolaversa dasturiy vositalardan foydalanishga, turli sayt yaratish dasturlardan foydalanishga qiziquvchi talabalar uchun bu yo`nalishda faoliyat olib borish ta`limda yangi axborot texnologiyalarini qo`llab ilm olish saviyasini oshirib beradi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadini qisqacha aytib o`tadigan bo`lsak, asosiy maqsad Uchqo`rg`on Pedagogika kollejining dinamik Web saytni yaratish va o`quv jarayoni hamda kasb – hunar kolleji faoliyatiga oid ma`lumotlar bilan internetda yoritib borish uchun yangi axborot texnologiyalarini qo`llash talab qilinadi.

2-bob. Kasb-hunar kollejini sayтини yaratish bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarni shakllantirish va umumiy strukturani ishlab chiqish

2.1. *Axborot texnologiyalari asosida elektron Web saxifalarni yaratish bosqichlari xakida*

Biz yuqorida Web sayt yaratish uchun foydalaniladigan vositalar bilan tanishib utdik. Endi bu vositalar asosida Web sayt yaratish uchun zamonaviy yangi texnologiyalarni keltirib o'taylik.


Ma'lumki har bir yaratilgan sayt o'zining ichki strukturasi ega bo'ladi. Lekin sayt yaratish uchun umumiy bo'lgan bosqichlar mavjud bo'lib, bu bosqichlarni quyidagicha keltirib o'tish mumkin:

1. Yaratiladigan Web sayt bo'yicha zaruriy axborotlarni to'plash.

Bu bosqichda berilgan mavzu bo'yicha zaruriy axborotlar to'planadi. Masalan: kollej haqidagi ma'lumotlar, kollejning administrativ tuzilishi, har bir shtatning bajaradigan vazifasi, shtatlar bo'yicha o'zaro bog'liqlik, sinflar, uyushma va kengashlar, ularning vazifalari bo'yicha ma'lumot to'planadi. Bu ma'lumotlarni Word redaktori yordamida kompyuterga kiritib, ma'lum bir formatga solinadi. SHuningdek barcha ma'lumotlarni tayyorlab olingach keyingi bosqichga o'tiladi.

2. Yaratiladigan Web saytning umumiy strukturasi hosil qilish.

Bu bosqichda yaratiladigan Web sayt uchun shablonlarni tayyorlanadi. Bu shablonlarni saytni yaratayotgan dizayner hamda programmistning mahorati bilan ham bog'lash mumkin. CHunki, dasturiy vositalarning o'zida ham maxsus shablonlar mavjud bo'lib, bu shablonlardan foydalanish yoki yangi shablon yaratish ham mumkin. Quyida shablon uchun bir nechta variantini freym va javallarni keltirib o'taylik.



3. Saytga tegishli saxifalarni o'zaro bog'lash.

Bu bosqichda har bir yaratilgan saxifani bir-biri bilan o'zaro bog'lab, sayt uchun zanjir xosil qilinadi.

4. Saytga dizayn berish bo'limi.


Bu bosqichda har bir saxifani dizayn jixatdan yanada kuchaytiriladi, qo'shimcha bezaklar beriladi.

5. Yaratilgan Web saytni tekshirish.


Bu bo'limda yaratilgan saytni nazoratdan o'tkazib, ishlash jarayoni tekshiriladi. Bu tekshirishning eng qulay usuli bu saytni boshqa kompyuterda ishlatib ko'rish va o'zaro bog'liqlarni tekshirib chiqish xisoblanadi.

2.2. *Dinamik saytlarni yaratishda WordPress dasturi va uning imkoniyatlarining sharhi*


Dinamik saytlarni yaratishda foydalaniladigan dasturiy vositalardan biri WordPress bugungi kunda eng ommabop hamda foydalanishga qulay bo'lgan dasturiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu dasturiy vositani foydalanishdan oldin Denwer ma'lumotlar bazasi bilan ishlovchi tizimlardan birini o'rnatish talab qilinadi. SHuning uchun denwer ni avval o'rnatib olamiz. Buning uchun denwer.exe faylini ustida sichqoncha tugmasini bosamiz. Ekranda kuyida keltirib o'tilgan ko'rinish g'osil bo'ladi:




Bu yerda haqiqatda dasturni oʻrnatish uchun tasdiq soʻraladi. “yes” tugmasini bosib, dasturni oʻrnatishni boshlaymiz. Yʻrnatish jarayoni quyidagicha bajariladi:



Denver dasturini oʻrnatish jarayonida quyidagi oyna hosil boʻladi. Bu oynani yopish bilan dasturni oʻrnatishni davrhom ettiriladi.




Dasturni oʻrnatish jarayonida kuyidagi kurinish hosil boʻladi. Bu oynadan “enter” tugmasini bosish orqali jarayonni davom ettiramiz:




SHunday so`ng, o`rnatiladigan papkaning nomini so`raladi. Aktiv holatda c:g\WebServers papkasiga o`rnatiladi.

Dasturni o`rnatish jarayonida virtual disk uchun nom so`raladi. Agar virtual diskning nomini berilmasa, aktiv holatda disk "z" disk sifatida tanlanadi.



SHundan so`ng, kuyidagi oyna orqali ma`lumot berib, kerakli fayllarni shu papkaga tashlash jarayoni boshlanadi.



```

C:\Users\Qudrat\AppData\Local\Temp\7zSA007.tmp\usr\local\miniperl\miniperl.exe

Поиск утилиты subst...
Программа "subst" похожа на subst, пробуем запустить...
* Утилита subst обнаружена.

Определитесь с именем нового диска. Как оптимальный вариант предлагается
диск Z: - маловероятно, что он у вас уже занят. Впрочем, вы можете
ввести и любую другую букву диска, который еще не занят. Указывать
существующие диски запрещено.

> Введите букву будущего виртуального диска [Z]: z

* Имя виртуального диска: Z.


Тестовый запуск subst...
OK, диск создан, система работает. Тестируем...
* Виртуальный диск создается и отключается без ошибок.

Сейчас будет произведено копирование файлов в директорию
C:\WebServers. Для отмены нажмите Ctrl+Break.

Для продолжения нажмите Enter.

```

Kuyidagi oynada esa, virtual diskni foydalanuvchi tomonidan aktivlashtirilishi yoki kompyuterni yoqilganda avtomatik ravishda virtual diskni yaratib olinishi to'g'risida tasdiq olinadi.



```

C:\Users\Qudrat\AppData\Local\Temp\7zSA007.tmp\usr\local\miniperl\miniperl.exe

readline() on closed filehandle F at INSTALL.bat line 706.
Use of uninitialized value in substitution (s///) at INSTALL.bat line 708.
binmode() on closed filehandle F at INSTALL.bat line 710.
print() on closed filehandle F at INSTALL.bat line 711.


Денвер может запускаться в двух режимах:
1. Виртуальный диск создается ПРИ ЗАГРУЗКЕ ОС. Запуск серверов
осуществляется с помощью ярлыка на Рабочем столе. При завершения
работы Денвера виртуальный диск НЕ отключается.
* Этот режим рекомендуется использовать, если вы собираетесь
* использовать виртуальный диск, не запуская серверов (например,
* хотите запускать Perl-скрипты не только из браузера, но и из
* командной строки).
2. При загрузке ОС виртуальный диск НЕ создается. На Рабочем столе
также, как и в п. 1, создаются ярлыки для запуска и остановки серверов.
При запуске серверов вначале создается виртуальный диск, после
останова - диск отключается.
* Необходимо помнить, что в этом режиме при неактивном Денвере не
* будет доступа к виртуальному диску (в частности, к Perl).
* Кроме того, некоторые версии Windows не умеют правильно отключать
* виртуальный диск (требуется перезагрузка).

Рекомендуется выбрать вариант 1, потому что он наиболее удобен.


> Введите 1 или 2 [1]:

```


Bu yerdan biz "1" ni tanlaymiz. SHundan so'ng kuyidagi oynada keltirib o'tilgan ma'lumot, ya'ni Denver dasturini muvoffaqiyatli o'rnatilganligi to'g'risidagi ma'lumt beriladi.




Brauzer oynasidan “//localhost/denwer/” buyrugini yozib “Enter” tugmasini bossak ekranda quyidagi sahifani ko`rinishi hosil bo`ladi.




SHuningdek, denverni to`g`ri o`rnatilganligini tekshirish uchun maxsus test bo`limi mavjud bo`lib, uni oyna ko`rinishi quyidagicha keltirib o`tiladi:






Denver dasturini fayllar tizimiga ahamiyat bersak, S diskda "c:g\WebServersg`denwerg`" papkasida denverni ishga tushiruvchi, qayta ishga tushiruvchi hamda ishini to`xtatuvchi maxsus fayllarni ko`rishimiz mumkin bo`ladi:



Virtual yaratilgan diskdan testdan o`tkazish uchun test1.ru papkasi ichidan index.html faylini ishga tushiriamiz hamda ekranda kuyidagi natijani hosil qilamiz:




Sayt uchun ma'lumotlar bazasini yaratish uchun `//localhost/tools/phpmyadmin/` buyrug'ini brauzer oynasida kiritamiz va ekranda quyidagi ko'rinishni hosil qilamiz:




Bu yerdan phpmyadmin buyrug'ini tanlasak, ekranda quyidagi ko'rinishni hosil qilamiz:



